

## URBANIZATSIYA SIYOSATIDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YUZASIDAN TAKLIFLAR

N.N. Xolmirzaev, TDTU Qo‘qon filiali  
“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrası  
dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha (PhD)

**Kalit so‘zlar:** Uy-joy siyosati, korrupsiya, shaffoflikni ta‘minlash, gegemonizm, davlat dasturlari.

**Annotatsiya:** Maqolada davlatimizda so‘ngi yillarda davlat dasturlari doirasida olib borilgan uy-joy siyosati, undagi korrupsion xolatlar, gegemonizm alomatlari hamda shaffoflikni ta‘minlash sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalar bo‘yicha takliflar xususida so‘z yuritiladi.

**Key words:** Housing policy, corruption, transparency, hegemony, state programs.

**Abstract:** The article talks about the housing policy carried out within the framework of state programs in recent years in our country, corrupt situations in it, signs of hegemony, and proposals for tasks that need to be implemented in the field of ensuring transparency.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda turli sohalarda katta o‘zgarishlar yuz berib, bularning natijalari ko‘plab ekspertlar tomonidan e‘tirof etib kelinmoqda. Xususan urbanizatsiya sohasida mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa uy-joylar qurilishi sohasida. Bularning natijalari sifatida shaharlarda o‘z yechimini kutayotgan bir qator muammolar bartararaf etilayotgani xalqimizni quvontirayotgani ayni haqiqat. Buning uchun mamlakatimiz turli darajadagi dasturlarni bajarish maqsadida har yili davlat byudjetidan milliardlab mablag‘lar ajratilmoqda.

Ta‘kidlash joiz sifatli uy-joylar qurish bo‘yicha topshiriqlar berilmoqda, ammo sohada korrupsiyaning mavjudligi ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish imkoniyatini yo‘qqa chiqarmoqda. Jumladan 2022 yilning dastlabki 9 oyi mobaynida yuklatilgan vazifa va topshiriqlar ijrosida kamchilikka yo‘l qo‘ygan

va o‘z vazifasini lozim darajada bajarmagan 427 nafar mas’ullar intizomiy va 724 nafari ma’muriy javobgarlikka tortildi, 3040 nafar shaxs rasman ogohlantirildi.

“Qurilish sifati va ish hajmlarini to‘liq bajarilishi o‘rganilib, 1553 ta holatda sifatsiz bajarilgan 32,3 mlrd so‘mlik hamda 793 ta holatda hisobotlarga qo‘shib yozilgan 37,9 mlrd so‘mlik ishlar bartaraf ettirilishi orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldi olindi”, - dedi Abdurahim Muhiddinov<sup>1</sup>. Misollarni davom ettirar ekanmiz quyidagilarni ham ko‘rsatishni joiz bildik. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tashabbusi bilan ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun tashkil qilingan pressturda Toshkent shahrining bir qator tumanlarida qurilish me‘yorlari va talablariga mos kelmaydigan yoki noqonuniy ravishda qurilishmontaj ishlarini olib borayotgan korxonalar faoliyati o‘rganildi. Xususan, presstur davomida Shayxontohur tumanidagi Labzak ko‘chasida buyurtmachi “Mustahkam qurilish” qo‘shma korxonasi tomonidan qad rostlayotgan 25 qavatli turar joy inshooti qurilishi amaldagi tartib qoidalarga mos emasligi aniqlandi. Mazkur ob’ektda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 200-sonli qarori bilan belgilangan talablarga amal qilinmagan holda, ya’ni, hududiy nazorat inspeksiyasi ro‘yhatidan o‘tmay turib ish olib borilayotgani ma’lum bo‘ldi. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi mutaxassislarining ta’kidlashicha, noqonuniy faoliyat uchun korxonalar rahbarlari bir necha bor ogohlantirilgan. Shunga qaramasdan, ayni paytda binoning 10-qavatigacha qurilish montaj ishlari bajarilmoqda. Bu haqida tuman hokimi, sudi va prokuraturasiga ham xatlar kiritilib, oradan bir necha oy o‘tgan bo‘lsada, biroq ular hanuzgacha lom-mim, deyishmaganini qanday tushunish mumkin?<sup>2</sup>

Ammo qonunchiligimizga ko‘ra har xil ob’ektlarning qurilishi ostida yer maydonlarini ajratishda O‘zbekiston davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi,

---

1

«Обод кишлоқ» ва «Обод маҳалла» дастури ижросидаги камчиликлар учун мингдан ортик масъул жавобгарликка тортилди. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/12/monitoring>

<sup>2</sup> Курилишда ўзибўларчилик ва ноқонуний ишлар кетмайди. О‘zbekiston bunyodkori газетаси № 37-38 (690-691) 4-бет (12 б)

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya xizmati, Davlat yong‘in nazorati va ularning hududiy bo‘linmalarining ijobiy xulosalari bo‘lishi majburiy hisoblanadi. Ta’kidlangan organlar aholi yashash punktlari maydonlarida mavjud tabiiy atrof-muhitni va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday ishlab chiqarishni joylashtirilishiga ruxsat bermaslik xuquqiga ega<sup>3</sup>. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki sohada gegemonizm elementlari mavjud. Gegemonizm - mohiyatan dunyo barqarorligiga yo‘naltirilgan yoki bunga hizmat qilishi kerak bo‘lgan jahon siyosatiga zid hodisa bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat barqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi... Gegemonlik hech qachon umumbashariy rivojlanish ishiga xizmat qilmagan. Lekin hozirgi nozik davrda uning salbiy ta’siri yanada yaqqolroq sezilmoqda<sup>4</sup>. Buni bosh prokuratura vakilining quyidagi fikrlari isbotlaydi. Unga ko‘ra ob’ekt pudratchisini tanlashdagi korrupsiya holatlarini oldini olish maqsadida pudratchilarning reytingini haqqoniy tarzda, inson omilisiz aniqlash va tender o‘tkazishda adolatli raqobat muhitini ta’minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, hukumat tomonidan ushbu takliflarni amaliyotga tatbiq etish choralari ko‘riladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib sohadagi korrupsiyalarni yo‘qotish maqsadida qator ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan,

- Buyurtmachi tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishi yuzasidan olib borilgan barcha ma’lumotlarni oshkor qilish;
- jamoatchilik monitoring guruhlarini tashkil etish orqali jamoatchilikning ijtimoiy faolligini olirish;
- shaffoflikni ta’minlash, ya’ni barcha xujjatlar saytga joylashtirilishini ta’minlash va boshqalar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki urbanizatsiya sohasida mavjud korrupsion holatlarni barataraf etishni xoxlasak barcha hujjat ishlarni elektronlashtirish,

<sup>3</sup> Сатторов З.М. Экология. дарслик: Тошкент.: “Сано стандарт”, 2018 йил. 234-бет (360 бет)

<sup>4</sup> Фалсафа. Қомусий луғат, Тошкент: Шарк, 2004. – 83-бет Б.494

xususan tenderlarni. Xorijiy qurilish kompaniyalarini keng jalb etish va ilmiy yechimlarga to‘liq amal qilish zarur.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yhati:

1. «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturi ijrosidagi kamchiliklar uchun mingdan ortiq mas’ul javobgarlikka tortildi.  
<https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/12/monitoring>
2. Qurilishda o‘zibo‘larchilik va noqonuniy ishlar ketmaydi. O‘zbekiston bunyodkori gazetasi № 37-38 (690-691) 4-bet (12 b)
3. Sattorov Z.M. Ekologiya. darslik: Toshkent.: “Sano standart”, 2018 yil. 234-bet (360 bet)
4. Falsafa. Qomusiy lug‘at, Toshkent: Sharq, 2004. – 83-bet B.494
5. NN Holmirzaev Eastern and western experience of labor culture  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38564222>
6. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsion taraqqiyot rivojida kimyo sanoati omili. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №-11-2, 625-627  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47780854>
7. Xolmirzayev N.N. Evolution of social activity and some aspects of its formation in young people. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №-2-1, 395-396 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45679718>
8. Xolmirzayev N.N. Key features and factors of modern urbanization. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №-1-2, 652-653  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45593716>